



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
QOZON (PRIVOLJYE) FEDERAL UNIVERSITETI
tomonidan o‘tkaziladigan**

**«XALQARO, MILLIY VA HUDUDIIY O‘LCHAMLARDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TA‘LIM»
IFTE-2025: UZBEKISTAN
pedagogik ta‘lim bo‘yicha xalqaro forum**



AXBOROT XATI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand davlat chet tillar instituti va Shahrizabz davlat pedagogika instituti bilan hamkorlikda Sizni 2025 yil 3-5 iyun kunlari bo‘lib o‘tadigan pedagogik ta‘lim bo‘yicha «IFTE-2025:UZBEKISTAN» xalqaro forumiga taklif etadi.

Forumning asosiy konferensiyalari va ularning sho‘balari:

- ✦ **2025 yil 3 iyun – Pedagog-talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish: oliy o‘quv yurti va maktab hamkorligi modellari** (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti)
 - Oliy o‘quv yurti - maktab hamkorlik modellarning zamonaviy shakllari
 - Amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘limda raqamli texnologiyalar
 - Yosh pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash ustoz-shogird tizimi
 - Inklyuziv ta‘lim va alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash
- ✦ **2025 yil 4 iyun – Ko‘p madaniyatli dunyoda pedagogik ta‘lim: tarix va hozirgi zamon** (Samarqand davlat chet tillar instituti)
 - Ko‘p madaniyatli ta‘lim: muammo va istiqbollari
 - Turli mamlakatlarda pedagogik ta‘limning tarixiy an‘analari

- Bo'lajak pedagoglarda bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni shakllantirish
- Ko'p madaniyatli ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish

✦ 2025 yil 5 iyun – O'qituvchi-tarbiyachi: vazifa va muammolar

(Shahrisabz davlat pedagogika instituti)

- Zamonaviy jamiyatda o'qituvchining tarbiyaviy roli
- Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va o'qituvchilarning kasbiy zo'riqish;
- Pedagogik kasbda etik va axloqiy me'yorlar;
- Ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar.

Forumning rasmiy tillari: o'zbek, ingliz, rus.

Maqsad: pedagogik ta'lim sohasidagi dolzarb va istiqbolli xalqaro ilmiy loyihalarni muhokama qilish, ishchi seminarlar doirasida ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish va amalga oshirish rejalarini belgilash;

- o'qituvchilarni tayyorlash, pedagogik amaliyot natijalarini taqdim etish, tajriba va fikr almashish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish.

Maqola tezislarni rasmiylashtirish talablari: Tezislar NAMUNA asosida qat'iy yozilishi lozim. Tezislar MS Word formatida taqdim etilishi kerak, Times New Roman shriftida (14), **hajmi 3-5 betgacha:** yuqori va pastki maydonlar – 2,5 sm; chapdan – 3,0 sm; o'ngdan – 1,5 sm. Tezis sarlavhasi KATTA HARFLARDA yoziladi. Uning ostida muallif(lar)ning ismi va familiyasi, tashkilot nomi, shahar va mamlakat ko'rsatilishi kerak. Matn 1,15 qator oralig'ida yoziladi. Matematik formulalar Kiritish/Formulalar buyrug'i orqali kiritiladi. Manbalar ro'yxati matn oxirida keltirilishi lozim.

Mualliflar tezislarda keltirilgan ma'lumotlar uchun shaxsan javobgardir. Talablarga javob beradigan tezislar forum boshlanishidan oldin rasmiy elektron to'plamlarda nashr etiladi. Har bir konferensiya yakunlari bo'yicha alohida to'plam chop etiladi.

Xalqaro IFTE-2025: UZBEKISTAN forumi bir nechta oliy o'quv yurtlari tomonidan tashkil etilgan konferensiyalarni o'z ichiga oladi. Tanlangan konferensiyaga qarab, tezislar ushbu konferensiyaning tashkilotchisi bo'lgan tegishli oliy ta'lim muassasasiga yuborilishi lozim.

Maqola tezislarning elektron versiyalarini qabul qilish muddati – **2025 yil 1-maygacha.** Har bir oliy ta'lim muassasasi tezislarni mustaqil ravishda qabul qiladi va konferensiya natijalari bo'yicha o'z to'plamini nashr etish uchun mas'ul hisoblanadi. Tezislarni topshirish uchun bog'lanish ma'lumotlari quyida keltirilgan.

Konferensiyalar bo'yicha tezislarni qabul qiluvchi mas'ul shaxslar:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

☎ Konferensiya: «Pedagog-talabalarni amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish: oliy o'quv yurti va maktab hamkorligi modellari»

☎ Kontaktlar: Ahmedova Shakhzoda +998909098657, Tursunov Lochin +998912998899

✉ E-mail: shahzodaaxmedova@gmail.com, ifteuzbekistan2025@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar instituti

☎ Konferensiya: «Ko'p madaniyatli dunyoda pedagogik ta'lim: tarix va hozirgi zamon»

☎ Kontaktlar: Julmatova Saodat +998975786875, Narzikulova Feruza +998915569869

✉ E-mail: sjulmatova@gmail.com

<https://ru.wikipedia.org/wiki/IMRAD>